

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI
FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI**


“TASDIQLAYMAN”



**Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot
instituti rektori, t.f.d., professor
A.A.Sidikov**
“31” 01 2025 y.

M.P.Umarova

**“UCH SHOXLI NERV
NEVRALGIYA” MAVZUSINI
O‘QITISH JARAYONIDA
INTERFAOL USULLARNI
QO‘LLASH
(Monografiya)**



Farg‘ona 2025

UO‘K: 616.8-009.7:378.147

M.P.Umarova

**“UCH SHOXLI NERV NEVRALGIYA” MAVZUSINI O‘QITISH
JARAYONIDA INTERFAOL USULLARNI QO‘LLASH “Classic”**

нашриёти, 2025. –44 бет.

ISBN: 978-9910-09-106-3

Ishlab chiqaruvchi tashkilot: Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti (FJSTI)

Muallif:

M.P.Umarova

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti “Nevrologiya va psixiatriya” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

TTATF Tibbiy psixologiya, psixiatriya va nevrologiya

D.E.Iskandarova kafedrasida mudiri, PhD

A.R.Muradimova Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti “Nevrologiya va psixiatriya kafedrasida mudiri, PhD, dotsent

Ushbu monografiya — "Uch shoxli nerv nevrалgiyasi" mavzusini o‘qitish jarayonida interfaol usullarni qo‘llashga bag‘ishlangan bo‘lib, tibbiy ta‘lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan. Asarda uch shoxli nerv nevrалgiyasining klinik manzarasi, diagnostikasi, differensial tashhisi va zamonaviy davolash usullari yoritilgan. Monografiyaning asosiy e‘tibori ushbu murakkab mavzuni o‘qitishda samarali interfaol usullardan foydalanishga qaratilgan. Jumladan, talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar tahlili, "Baliq skeleti", "Aqliy hujum" kabi texnikalar, guruhli munozaralar hamda amaliy mashg‘ulotlar kabilarning ahamiyati ko‘rsatilgan.

Mazkur ilmiy ish tibbiy ta‘lim sohasidagi pedagoglar, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar hamda sohaga qiziquvchi keng jamoatchilik uchun mo‘ljallangan.

Monografiya ta‘lim samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish va talabalar bilimlarini tizimli ravishda baholashga qaratilgan ilmiy-amaliy manba sifatida xizmat qiladi.

Monografiya Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Nevrologiya va psixiatriya kafedrasining 2025 yil “31” 01 dagi 01-02m-2- son bayoni bilan tasdiqlandi.

Monografiya Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Ilmiy Kengashi tomonidan 2025 yil “31” 01 dagi 01-02m-2- son bayoni bilan tasdiqlangan.

FJSTI Ilmiy kengash kotibi, DSc, dotsent

I.X.Iminaxunova



ISBN: 978-9910-09-106-3

UO‘K: 616.8-009.7:378.147

© “Classic” нашриёти

ANNOTATSIYA

Mazkur monografiya malakaviy ish ichki kasalliklar fani bo'yicha tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarini o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalangan holda "Uch shoxli nerv nevralgiyasi" mavzusini keng yoritib berishda hamda, talabalarning zamonaviy interfaol usullar va pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda mavzuni o'zlashtirishi va bilimini oshirishi uchun bajarilgan.

АННОТАЦИЯ

Это монография было сделано с целью широкого охвата темы «Невралгия тройничного нерва» с использованием инновационных технологий в обучении студентов медицинских учреждений внутренней медицины, а также для повышения знаний студентов и понимания предмета с использованием современных интерактивных методов и педагогических технологий.

ANNOTATION

This monograph was carried out to broadly cover the theme of "Trigeminal neuralgia" using innovative technologies in teaching the students of medical institutions of internal medicine, and to enhance students' knowledge and understanding of the subject using modern interactive methods and pedagogical technologies.

MUNDARIJA

Kirish	6
I.BOB Interfaol ta'lim usullari, ularga qo'yiladigan	
1. talablar.....	11
II.BOB	
2. Talabalarni o'qitishda qo'llaniladigan interfaol o'qitishning shakllari.....	21
III. BOB	
3.1 Asab kasalliklarini o'qitishni qisqacha tavsifi	29
3.2 Mavzuning qisqacha mazmuni.....	32
3.3 Asab kasalliklarini o'qitishda interfaol usullarni qo'llash.....	37
Foydalanilgan adabiyotlar.....	41



"O'qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir"

***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh. M. Mirziyoyev***

KIRISH

Ta'lim islohotlarni amalga oshirishning asosi pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq etishdan iborat ekanligi bu soha vakillarining barchasiga ayon bo'lib qoldi. Islohotlarning tub yo'nalishlarini to'g'ri anglash o'qituvchilar uchun ta'lim tizimida yangicha faoliyat usullarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradiki, bu bevosita o'qituvchilar oldiga ta'lim jarayoniga qat'iy o'zgarishlar kiritish xamda pedegogik axborot texnologiyasiga oid bilimlarni egallash vazifasini qo'yadi.

Oliy ta'lim tizimida yuksak malakali, ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, yangi texnika va texnologiyalarga tez moslanishga layoqatli kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayonini zamonaviy o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlash, o'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasini loyixalashtirish, rejalashtirish va uni ishlab chiqish xamda amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamiz hukumati va Prezidenti olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, ayniqsa kelajak avlodni milliy tiklanish mafkurasi ruhida tarbiyalashga juda katta e'tibor berilmoqda.

Rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Respublikamiz xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari kabi ta'lim sohasida ham ilg'or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali

ta'lim mazmunini jahon andozalari darajasida olib chiqishga harakat qilmoqda.

«Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunlari oliy va kasb-hunar ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama etuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilyapti. [O'zbekiston Respublikasining qonuni normativ huquqiy hujjatlar to'g'risida //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 y., 1-2- son, 2004 y., 51-son, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami.] Bu borada ta'lim turlari to'g'risidagi mutlaqo yangi qoidalar hayotga joriy etildi. Kadrlar tayyorlash va uzluqsiz ta'lim tizimini isloh qilishning huquqiy-me'yoriy asosi yaratildi. Ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilanayotganligi, fan kashfiyotlari va texnikani bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanib borishi mutaxassis kadrlardan uz bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, tuldinib va kengaytirib borishni talab etadi.

Mavzuning dolzarbligi va asoslanishi. Innovatsion texnologiyalarni asosiy maqsadi-insonni har qadamda o'zgarib borayotgan xayotga mukammal tayyorlash. Insonni sifatii jihatdan yaxshi tomonga o'zgartirish. Innovatsiyalar o'rgatish metodlari: odamni qiziquvchanlik jihatini yuqori darajaga kutaradi.

O'rganilayotgan materialni sistematisatsiya qilishni, diskussiya qilish va muxokama qilishni o'rgatadi. O'rganilayotgan materialni tushunib yetib, uni sistematisatsiya qilib amaliyoda qullab-tajribada ko'riladi.

Yangi pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga tadbiq etish uchun uning ilmiy – amaliy mexanizmini yaratish zarur. Pedagogik texnologiya hozirda barcha pedagogik kasblar hamda ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog'liq kasblarning asosini tashkil qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar xabardor bo'lishlari zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2909 sonli «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq uzluqsiz ta'lim tizimini rivojlantirish, mamlakatimizning izchil rivojlanib borayotgan iqtisodiyotini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, barcha hududlar va tarmoqlarni strategik jihatdan kompleks rivojlantirish masalalarini hal qilish borasida oliy ta'lim tizimi ishtirokini kengaytirish yulidagi yana bir muhim amaliy qadamdir.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni xosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, kunikma va malakalar darajasini baxolash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.[O'zbekiston Respublikasining qonuni normativ huquqiy hujjatlar to'g'risida //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 y., 1-2- son, 2004 y., 51-son, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami.]

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talaba- talablarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganishlariga, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Shuning uchun ta'lim muassasalarida zamonaviy o'qitish metodlari, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir.

Har qanday texnologiya ta'limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanadi va ta'lim oluvchi shaxsini tarbiyalash, unda mehnat va muayyan yo'nalishlarda kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiradi. Ta'lim jarayonining faol sub'ektlari o'qituvchi va talabalar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu (yoki fanlar asoslari) bo'yicha kam kuch va vaqt sarflangan holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini beruvchi jarayonning umumiy mohiyatini tavsiflaydi.

O'qituvchining faol, samarali faoliyat ko'rsatishiga yunaltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta'limning pedagogik texnologiyasi ta'lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o'quv materiallarini uzlashtirishga sharoit yaratadi. Pedagogik texnologiyaning yetakchi muammosi talaba shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iboratdir.

Pedagogik texnologiya turini tanlash dars va mashg'ulotda qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni nazarda tutilganiga bog'liqdir.

Ta'lim-tarbiya jarayoni butun mashg'ulot davomida talabalarning faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib borish maqsadini ko'zda tutadi, o'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya talabalarni o'quv yoki o'quv ishlab chiqarish faoliyatiga tezkor jalb qilish imkonini beradi. Aks holda, zaif, yetarli darajada tushunarli bo'lmagan yoki aniq natijani kuzlamagan topshiriqlar mashg'ulotning samarasiz yakunlanishiga olib keladi.

Pedagogik texnologiya maqsadi aniq masalalar qo'yish orqali o'quvchini o'ylashga, mustaqil fikrlashga odatlantirishga qaratilgandir.

Bugungi kunda barcha sohalaridagi globallashtirish jarayonlari va axborotlarning shiddat bilan kirib kelishi oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarishni yulga qo'yishni talab etmoqda.

Bundan tashqari jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yullari va choralari haqida mulohazalarini bayon etar ekan, Prezident Shavkat Mirziyoyev ishlab chiqarishning barcha sohalariga innovatsiya va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish – O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yuli ekanligini alohida ta'kidlab utadi.

Ma'lumki, bugungi kunda uzluqsiz ta'lim tizimi, shu jumladan, oliy ta'lim tizimining raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdagi rolini oshirish ko'p jihatdan mazkur ta'lim muassasalaridagi innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Chunki innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarish oliy ta'lim tizimidagi o'quv jarayoni samaradorligini ta'minlash va yuqori salohiyatga ega kadrlarni tayyorlashning muhim omilidir.

Oliy ta'lim tizimida mavjud yoki yangi ehtiyojlarni qondirish uchun yangiliklarni yaratish, joriy etish, o'zlashtirish va foydalanishga doir faoliyat innovatsion jarayondir. Mazkur faoliyatning oliy ta'lim tizimida maqsadga yunaltirilgan uzgarishlarga olib keluvchi tashkiliy shakli yangiliklar kiritishdir.

Yurtimizda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga jahon andozalari darajasida bilim olgan zakovatli, har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, biron bir masalani ongli ravishda, mas'uliyat bilan hal qiladigan, izlanuvchi, yangilikka intiluvchi

iste'dodli yoshlar, yuksak malakali mutaxassislar yetkazish, oliy ta'lim tizimida yetuq mutaxassislarni tayyorlash maqsadida mutaxassislik fanlarini o'qitishda o'quv-tarbiya jarayoni sifatini jahon standartlari darajasiga kutarish, ta'lim, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining butunlay yangi usullarini joriy etish asosida tashkil etish uta muhim shuningdek dolzarb masaladir.

Zamonaviy mutaxassis o'z kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo'nalishlari hamda yuzaga keluvchi muammolarni yechish yullarini ko'ra bilishi lozim. Bunday talablar darajasidagi mutaxassisni tarbiyalash uchun oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiyani zamon talablariga mos ravishda amalga oshirish uchun, o'qitish jarayoniga interfaol ta'lim usullari qullab, zamonaviy vositalar majmuasini ishlab chiqish hamda ilmiy – metodik jihatdan asoslash lozim bo'ladi.

Uch shoxli nerv nevralgiya mavzusini talabalarga interfaol usullar yordamida o'tishdan asosiy maqsad uch shoxli nerv nevralgiyasi bilan og'rikan bemorlarda kelib chiqish sababini, klinik kechishini hurujsimon bo'lishi, bemorlarni ish faoliyatiga tasir qilishi, og'riqlar tish va yuzni yuvishdan keyin boshlanishini o'rganish va dori vositalarini ko'nikmalarini shakillantirishdan iborat.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida asab kasalliklari fanidan talabalarining bilimi, kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish maqsadida innovatsion ta'lim texnologiyalari, axborot texnologiyalari va interfaol usullardan foydalanib, dars jarayonini faolligini oshirish, oliy ta'lim muassasi oldida turgan dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Monografiyaning predmeti:

Asab kasalliklari fanidan "Uch shoxli nerv nevralgiya" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'qitish shakli, pedagogik texnologiyasi, yagona metodik tizimi, ishchi dasturlar, sillabus, usul va vositalari.

Monografiyaning obyekti:

Farg'ona jamoat salomatligitibbiyot institutida nevrologiya kafedrasida asab kasalliklari fanining o'qitish jarayoni.

Ishning maqsadi: Asab kasalliklar fanini o'qitishda interfaol usullarning ahamiyati va uni talabalar bilim, malaka va ko'nikmasini shakllantirishdagi o'rnini tahlil etish.

Ishning vazifalari:

-“Uch shoxli nerv nevralgiya” mavzusini o‘qitishda interfaol usullarni qo‘llash va shu asosda dars o‘tish texnologiyasini ishlab chiqish;

-Talabalarda dallillarga asoslangan tibbiyot asosida ma’lumotlarni izlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

Ish tuzilmasining tavsifi. Ushbu monografiya 52 betdan iborat bo‘lib, kirish, 3 ta bobdan iborat asosiy qism, xulosa va tavsiyalardan iborat.

I-BOB. INTERFAOL TA'LIM USULLARI, ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining rivojlanib borishi, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida kadrlar tayyorlash sifatini yanada takomillashtirish; fan-texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlariga tayangan holda talabalarni kasb-hunarga o'rgatishda ularning izlanuvchanlik, ijodkorlik, fikrlash qobiliyatlarini yuksaltirish, nutq madaniyatini o'stirish; axborot-kommunikatsion texnologiyalar xizmatidan maqsadli ravishda samarali foydalanish; ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb muammolardan biridir.

Zamonaviy ta'lim sharoitida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy malakalarini shakllantirishda ularning mustaqil o'rganishi va muammoni hal etishda ijodiy yondashish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu xususiyatlar ta'lim oluvchilarning mustakil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va bilim olishlarini faoliyatini faollashtirish orqali shakllantiriladi.

Ta'lim oluvchilarning ongliligi va faolligini oshirish uchun o'qitish jarayoni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadigan bo'lsin.

Bernard Shou bir kuni: "Agar siz odamni o'qitib, biror narsaga o'rgatmoqchi bo'lsangiz, u hech qachon hech narsani o'rganmaydi" degan ekan. Materialni yaxshi o'zlashtirib olishi uchun ta'lim oluvchi shu material ustida faol ishlashi kerak. Shunchaki quloq solib tinglash yoki ko'zdan kechirib chiqishning o'zi yetarli emas. Ta'lim oluvchi materialni o'ylab ko'rishi, muhokama qilib chiqishi yoki mazkur mavzuga doir mustaqil ish topshirig'ini bajarishi kerak.

Ta'lim oluvchi mustaqil va ijodiy faoliyati ob'ekt-jarayon va hodisalarni kuzatish, taqqoslash, bir-biridan farqli jihatlarini aniqlash, umumlashtirish kabi xususiyatlar orqali ko'zlangan maqsadiga erishishi mumkin. Demak fanlarni o'qitishda ham ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faoliyati o'z-o'zidan faollashmaydi, u eng avvalo aqliy va ongli munosabat natijasida yuzaga keladi.

Biz tomondan o'tkazilgan izlanishlar va olingan dastlabki natijalar tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim oluvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish orqali ularning bilim imkoniyatlari, ijodiy va

mustaqil ishlash qobiliyatlarini hamda amaliy ko'nikmalarini o'rganish darajalarini rivojlantirishga erishish mumkinligi aniqlandi.

Ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtirishdan oldin ularning dastlabki bilim darajasi, o'zlashtirgan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishi ko'nikmalarni hamda mustaqil ishlash qobiliyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu xususiyatlarni har tomonlama tahlil qilmay turib, talabalarning faol faoliyat ko'rsatish darajasi haqida fikr yuritib bo'lmaydi.

Demak, ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish va o'quv amaliy faoliyatlarini faollashtirishga yo'naltirilgan faol ta'lim metodlarini o'rganish, ularning pedagogik texnologiyalar tizimida o'rni va rolini aniqlash va o'quv jarayonida qo'llash metodikalarini ishlab chiqish ham bugungi kunning dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ta'lim tizimida metod tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak uning ma'nosi-ko'zlangan o'quv maqsadiga erishish uchun avvaldan belgilangan eng aniq va qisqa yo'ldir. Tadqiqotlarda metod bir muammoni yechish, biror tajribadan natija olish, bir mavzuni o'rganish yoki o'rgatish kabi maqsadlarga erishish uchun bilib tanlangan yoki shunga qarab boriladigan yo'ldir deb ta'riflanadi.

Ba'zi pedagogik adabiyotlarda metod atamasi o'rniga metod so'zi ham ishlatilib kelinmoqda. Masalan, metod – (grekcha metodos so'zidan olingan bo'lib, izlanish yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot ma'nosini anglatadi) konkret vazifani yechishga bo'ysundirilgan, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish operatsiyalarining yoki yo'llarining yig'indisi deb ta'rif beriladi.

Keyingi paytlarda pedagogik amaliyotda ko'pdan "Ta'limning faol shakl va metodlari" atamasi qo'llanila boshlagan. U talabalar o'quv faoliyatining yuksak darajasini ta'min etuvchi qator pedagogik texnologiyalar guruhini o'zida uyg'unlashtiradi.

So'nggi vaqtlarda esa yana bir atama keng tarqalgan bo'lib, u- "interfaol ta'lim"dir. Interactive Learning atamasi ingliz tilida ta'lim sub'ekti (o'qituvchi, trener, rahbar, boshqaruvchi) bilan favol aloqadorlikka asoslangan ta'lim ma'nosini anglatadi. Mohiyatan u kommunikativ texnologiyaning variantlaridan biri (model)ni bildiradi. Boshqacharoq qilib aytganda, interfaol ta'lim-ta'lim ob'ekti va sub'ekti o'rtasidagi a'lo darajada tashkillashtirilgan o'zaro hamkorlik munosabatidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro ikkiyoqlama (teskari) axborot almashinuviga asoslanadi.

Ta'lim metodi belgilangan o'quv maqsadiga kafolatli erishish uchun o'qituvchi va talabaning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishning tartibga solinishidir.

Faol ta'lim metodlarisiz qo'yilgan o'quv maqsadiga, erishishda bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirishga, ta'lim natijalariga erishish qiyin.

O'qituvchi tomonidan bunday faol metodlarni tadbiq etilishi talabalarni mehnat qilishga, diqqatini tortishga o'z ustida mustakil ishlashga, fikrlashga, izlanishga undaydi, darslarga qiziqishi ortib, qatnashishi faollashadi.

Biz, faollashtirishni ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy faktorlardan biri sifatida qaraymiz. Faollashtirish lotincha so'zdan olingan bo'lib -faol, ishchan) ma'nosini anglatadi, ya'ni shaxsning aqli va irodasini kuchaytirish orqali uning bilim olish va o'rgatish, faollashtirish qobiliyatini tushuniladi.

Faol ta'lim deganda, - biz ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi va o'qituvchilarning ongli va faol ishtiroki, mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar majmuini tushunamiz.

Ta'lim oluvchining umumiy faolligi uning bilim va ko'nikmalarni egallash, jarayon va hodisalarning mohiyatini anglab olishga qaratilgan faoliyatini bildiradi.

Ya.Ya.Yurchenko ta'lim oluvchilarni faollashtirishda quyidagi usullardan foydalanish yuqori samara berishini ta'kidlagan:

- o'rganilayotgan o'quv materiallarini dolzarblashtirish;
- muhim o'quv materialiga ta'lim oluvchilar diqqat-e'tiborini tortish;
- ta'lim oluvchilarda o'z fikr-mulohazalarini bayon etish va uning to'g'riligini himoya qilishga shart-sharoit yaratish;
- o'zlashtirilgan materialni ilmiy-amaliy jihatdan baholashga undash;
- o'rganilayotgan mavzu, bag'ishlangan manbalarni muntazam ravishda ko'rgazmali targ'ib etish.

Faollik tufayli shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim oluvchining "shaxsiy mulki"ga ko'chadi va bu bilimlarni istagan paytda ishga solish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dastlabki izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim oluvchilarni faollashtirish quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar orasida ongli munosabatlarni o'rnatilishiga;
- ta'lim oluvchilarning mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga;
- ta'lim oluvchilarning axborot manbalari bilan mustaqil ishlashlariga;

-ta'lim oluvchilarning mashg'ulotlarga muntazam va to'liq ishtirokini ta'minlashga;

-ta'lim olishga qiziqish uyg'otadi;

O'qituvchi qanchalik ta'lim oluvchilarda yoqimli emotsional tasavvurlar hosil qila olsa, yangi o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida ularning faolligi shuncha oshadi.

Shuni ta'kidlash joizki o'qitishning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ta'lim oluvchi tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish jarayonining har bir bosqichida o'qituvchi ularning ongli fikr yuritish faolligini vujudga keltiradi va tashkil etadi.

Onglilik avvalo ta'lim oluvchi erishish kerak bo'lgan o'quv maqsadlarini, hamda o'rganilayotgan material mazmuni va o'zi boshqarish lozim bo'lgan topshiriqlarning mazmunini tushunishdan iboratdir. Shuningdek onglilik shuni takozo kiladiki, ta'lim oluvchi o'quv materialini mexanik tarzda yodlab olmaydi, yoki topshiriqni mexanik tarzda bajarmaydi, balki topshiriqni shu tarzda bajarganligining mohiyatini tushuntirib bera oladi, o'qituvchining savollariga bergan o'z javoblari bilan u o'rganilayotgan o'quv materialning ma'nosini haqiqatan ham tushunishini namoyon qila oladi.

Onglilik, shuningdek ta'lim oluvchining topshiriqlarini bajarishga mas'uliyatli munosabatini bildiradi. Ongli fikrlovchi va ishlovchi ta'lim oluvchi har qanday o'quv topshirig'ini o'z vaqtida va aniq bajarishga harakat qiladi. U zaruriy hollarda o'qituvchilarning yoki iqtidorli o'quvchilarining yordamiga tayanib topshiriqning mustakil bajarishga intiladi.

Demak, o'quv-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarning faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham an'anaviy ta'lim tizimida aynan mana shu muammoga yetarli darajada ahamiyat berilmaganligi sababli ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirish «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da talab darajasiga ko'tarilgan. Biz ta'lim oluvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularning ijodiy qobiliyati, bilim olish va o'rganishdagi faolligini oshirishga qaratilgan bir qator ilmiy ishlarni o'rgandik.

Tadqiqotlarda talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish masalasi o'quv jarayonining muhim vazifalaridan ko'p ta'kidlanadi.

O'quv jarayonini oqilona, to'g'ri tashkil qilish, o'qitishni zamonaviy usullari va xorij tajribalaridan foydalanib tashkillashtirish dars samaradorligini oshiribgina qolmasdan, ta'lim oluvchilarning ilmiy-intellektual salohiyatini va erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

I.A.Allayorov «faol ta'limning didaktik asoslari – bu, jarayon ishtirokchilarining ongli, oqilona munosabatlarini o'rnatilishi va yuqori sifat hamda samaradorlikni ta'minlanishi» deb talqin etgan.

Ta'lim oluvchining faqatgina o'rganilayotgan ob'ektga, jarayonga yoki hodisaga ongli munosabati natijasida bilim, amaliy ko'nikma va ijobiy shaxsiy xislatlari hamda fazilatlar shakllanadi.

A.M.Matyushkinning fikricha faol bilish – ta'lim jarayonida muntazam ravishda, birin-ketin topshiriqlar berish, muammoli vaziyatlar hosil qilish natijasida yuzaga keladi. Faollik onglilik natijasida vujudga kelar ekan, bu hol fanlarni o'rganish mazmuni, shakli, usul va vositalarini o'zaro muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi. Faollik darajasini belgilashda o'quv materialning murakkablik darajasi inobatga olinishi lozim.

Ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirishda psixologik hamda pedagogik muammolar yuzaga keladi. Chunki, psixologlar ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faolligini psixologik xususiyat sifatida, pedagoglar esa ta'lim jarayonining asosiy qonuniyati va zamonaviy talabi sifatida qaraydilar.

O'qituvchi ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faolligini oshirish uchun o'quv materiali murakkablik darajasidan kelib chiqib mashg'ulotni o'tkazishning turli shakllari va usullarini ishlab chiqishi kerak.

Tadqiqotlarda faollikning quyidagi darajalari keltiriladi.

1.Faollikning birinchi darajasi - ta'lim oluvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlarini qayta takrorlashi, uni xotirada tiklashi hamda o'qituvchining bevosita rahbarligi va ko'rsatmalari asosida unga ergashib bajaradigan ishlari yoki berilgan namunaga qarab aynan bajaradigan topshiriqlari jarayonida namoyon bo'ladi. Chunki, ta'lim oluvchilarning o'tilgan nazariy materialini eslashi, unga mos keladigan ishlab chiqarish mazmunidagi masalalarni namunaga qarab yechimini topishga qaratilgan hatti-harakatlarini qayta xotirlashga xizmat qiladi.

2.Faollikning ikkinchi darajasi – o'rganilayotgan ob'ekt yoki jarayonning mohiyatini tushunishni, ma'lum ma'noda ijodiy fikrlash elementlarini taqozo etadi. Faollikning bunday darajasi o'rganilayotgan ob'ekt va jarayonlardagi o'xshashlik va farqli jihatlarini aniqlash, o'zlashtirilgan bilimlarni ma'lum o'zgartirilgan holat va vaziyatlarda qo'llanishini ko'zda tutadi.

3.Faollikning uchinchi darajasi ijodiy xarakterdagi hatti-harakatlarni talab etadi. Ko'zlangan o'quv maqsadga erishish yo'lida ijodiy faoliyatni ko'rsatadi. Qisman izlanish xarakteridagi faoliyat to'la

ijodiy xarakterga ega bo‘ladi. Faollikning bu darajasida egallangan bilimlar tizimli, chuqur va puxta bo‘lib, ulardan istalgan sharoitda foydalanish mumkin.

Faollashtirish darajasi birinchidan, ta'lim oluvchilarning o‘quv materialini o‘rganishga motivatsiya uyg‘otish, ularda mustaqil ishlash va izlanish qobiliyatlari qanday darajada ekanligi bilan belgilansa, ikkinchidan, o‘qituvchi tomonidan o‘qitish va o‘rgatish jarayonini faollashtirish maqsadida yaratilgan sharoit, ta'limning shakli va faol usullari hamda didaktik vositalarga bog‘liq bo‘ladi.

Ko‘plab pedagog olimlar, metodistlar va tadqiqotchilar tomonidan ta'lim oluvchilarning bilim olish va o‘rganish, o‘quv-bilish faolligining mohiyati, shakllari, darajalari va amalga oshirish shartlari to‘g‘risida turli fikrlarni bildirganlar.

Ta'lim jarayonidagi talabaning faolligi, didaktikaning asosiy tamoyillaridagi biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Talabaning faolligi, maqsadli yo‘naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta'sirlar va pedagogik muhitning tashkil etishi natijasidir.

M.N.Skatkin “bilish faolligi” va “fikrlash faoliyati” tushunchalariga izoh berib ularning farqli jihatlarini quyidagicha ko‘rsatib berdi: “Bu tushunchalardagi muhim farq, birinchidan bilish faoliyatida faqatgina fikrlash jarayonini qamrab olmay, balki diqqat-e’tibor, iroda, xotira ham o‘rin topgan va ikkinchidan, unda insonning olamga munosabati ham o‘z aksini topadi”.

Pedagogik amaliyotda o‘rganishga qiziqish ko‘pchilik hollarda ta'lim oluvchilar bilim olishining faollashuvi, o‘qituvchining o‘qitish jarayonini jozibali qilish imkonini beradigan samarali vositasi, shuningdek o‘qitishda ta'lim oluvchilarning diqqatini o‘ziga jalb qila oladigan, ularning fikrlashishini faollashtirishga, hayajonlanishga, xavotirlanishga majbur qiladigan aspektlarni ajratib ko‘rsatish vositasida ko‘rib chiqiladi.

I.Ya.Lerner faollikni shaxs mustaqilligining shart-sharoiti sifatida qaraydi, chunki shaxs faol bo‘lmasdan mustaqil bo‘la olmaydi. Muallif faollik va mustaqillik darajalari sifatida “oddiy faollik”, “haqiqiy mustaqillik” terminlarini ko‘rsatgan.

Ta'lim samaradorligini oshirishda, o‘quvchi o‘quv-biluv hamda ijodiy faoliyatini faollashtirishda ijodiy mazmundagi o‘quv topshiriqlarining o‘rni beqiyos.

Adabiyotlar va tadqiqot ishlaridagi fikrlar tahlili faollashtirishga ikki yondashuv mavjudligidan ko‘rsatadi. Ba’zi mualliflar bilish yoki bilim olish faolligini faoliyat sifatida talqin etsalar, ikkinchilari shaxsiy

fazilat deb ta'kidlaydilar. Bizning nazarimizda ikkalasini birgalikda qo'llash kerak.

B.Nuriddinov ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish muammosiga bag'ishlangan nashriy ishlarning tahlil qilish natijasida bu sohadagi tadqiqotchilarning g'oyalarini shartli ravishda quyidagi uch yo'nalish(guruh)ga ajratadi [28]:

Birinchi yo'nalish bilish faoliyatini faollashtirish o'quv materialiga nisbatan ta'lim oluvchilarning irodaviy kuchlarni maxsus yo'naltirish va emotsional munosabatda bo'lishini talab qiladi degan g'oyani ilgari suradigan tadqiqotchilar.

Ikkinchi yo'nalish mualliflari faollashtirishning asosiy negizini "fikrlash" tashkil etadi, ana shuning uchun ham ta'lim oluvchilarni fikr yuritishga, mantiqiy o'ylab ko'zlangan maqsadga imkon qadar samarali erishishga o'rgatish zarur deb biladilar.

Uchinchi yo'nalish faollikni ta'minlash uchun ma'lum shart-sharoit yaratish kerakligini asosiy omil sifatida qaraydigan tadqiqotchilar.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirish aqliy faoliyat mahsuli bo'lgan fikrlar bilan bog'liqdir.

Shuni ta'kidlash joizki ta'lim muassasasida zarur bo'lgan muhim sharoit va muhit yaratilganda ta'lim oluvchi faol faoliyat ko'rsata olishi mumkin.

Psixologiyada faoliyat – shaxsning ma'lum maqsadga muvofiq yo'naltirilgan ongli munosabati va xatti-harakatlarini amalga oshirish shakli sifatida talqin etiladi. Shaxsning bilim olish va o'rganish ya'ni aqliy faoliyati uning psixologik tayyorgarliksiz ko'zlangan natijani bermaydi. Demak ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchida o'rganilayotgan o'quv materialiga nisbatan qiziqish, xohish-istak uyg'otish, mustaqil va ijodiy fikrlashiga shart-sharoit yaratish lozim. Bu maqsadga faqat turli faol ta'lim usullarini qo'llab erishiladi.

O'qitishga ishtiyoq, qiziqish, ishtiyoq uyg'otish, ayniqsa undan huzur topib, mamnun bulish, ta'lim jarayonida eng yaxshi natijalarni beradi. Bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni o'zlashtirishda ta'lim oluvchilarning faolligini, qiziqishini, ijodiy mustaqilligini oshirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va faol ta'lim usullarini qo'llash ana shunga ko'p jihatdan yo'l ochadi.

Hozirgi paytda o'quv tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faolligini oshirish muammosiga qaratilgan nazariy tadqiqotlar va yutuqlar amaliyotda o'z tatbig'ini topmayapti.

Ta'lim oluvchilarning fanni o'rganish jarayonidagi faolligi asosan uning bilim olishga bo'lgan qiziqishi belgilangan o'quv maqsadini erishishiga qaratilganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Tadqiqotlarda ta'limni faollashtirish uchun quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratish lozimligi hamda fikrlar bildirilgan.

A) o'quv muammolarni yechishga qaratilgan faol usullarni qo'llash;

B) maqsadli va amaliy o'yinlar o'tkazish;

V) davra suhbatlari va ochiq munozaralar tashkil etish;

G) namunali noa'naviy yoki munozara darsi, tarbiyaviy tadbir muhokamasini o'tkazish;

D) ta'lim jarayonida zamonaviy va axborot pedagogik texnologiyalardan foydalana olish.

Tadqiqotchilar o'qitishning faol usullarisiz o'quv materiallarini mukammal o'zlashtirish amri maholligi va bugungi kunda ta'lim oluvchilarning bilish faolligini oshiradigan o'qitish usullari va vositalarini izlab topish hamda ularni takomillashtirish pedagogikamizdagi dolzarb masalalaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar.

Ta'lim oluvchilar o'quv materialini o'rganish muhimligini ongli ravishda tushunib yetishlari, shuningdek samarali o'zlashtirish uchun ularda xohish-istak, qiziqish va ishonch bo'lishi kerak.

Faol ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan bilim egallangan ko'nikma va malakalar mazmunan tizimli va mantiqan tugallangan tarzda shakllantirilib turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga imkon beradi.

Ta'lim oluvchilarni faollashtirish ularning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqotlarda ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faoliyatini quyidagi darajalarda bo'lishi keltirilgan:

I. Faollilik va mustaqillikning dastlabki darajasida o'qituvchi ta'lim oluvchilarga ilgari o'zlashtirilgan tayanch bilim, ko'nikmalar va shaxsiy fazilatlarni eslatadi. Yangi o'quv materialini tushuntiradi. Bu jarayonda ta'lim oluvchilarning o'rganishga xohish, qiziqishi emas, balki unga o'quv jarayonini tashkil etish shakllari, xonalar jihozlanishi nazariya bilan amaliyotning ta'minlanishi kabilar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

II. Kommunikativ faollik va mustaqillik darajasida ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilarining o'zaro fikr va tajriba almashishlari talab darajasida yo'lga qo'yilgan bo'ladi. Bunda o'quv materiallarini barcha ta'lim oluvchilar deyarli bir xil darajada o'zlashtiradilar, ularning fanga bo'lgan qiziqishi doimiy va barqaror

ijobiy emotsiyalar bilan mustahkamlanadi. Ta'lim oluvchilar mustaqil holda o'zlashtirilgan o'quv materialiga izohlar beradilar, amaliy harakat usullarini bajarib ko'rsatadilar. O'qituvchi o'quv materialini ta'lim oluvchilar tomonidan yetarli darajada o'zlashtirilganligiga ishonch hosil qilganlaridan so'ng yangi o'quv materialini o'tishga kirishadilar.

III. Ijodiy faollik va mustaqillik darajasida o'qituvchi tayanch bilimlarni eslatmaydi, qayta takrorlamaydi, balki aksincha nisbatan muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirib, turli murakkab savollar va topshiriqlar berib, ularning mustaqil tarzda yangi yechimlarini topishga yo'naltiradi. Ta'lim oluvchilar o'quv materialini mustaqil o'rganishga yo'naltirilgan ijodiy izlanuvchi sifatida o'rganish faoliyatida ishtirok etadilar.

Aynan shu bosqichda zamonaviy ta'lim talablariga mos faoliyat amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarni faollashtirish uchun o'qituvchi:

- ta'lim oluvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasini aniqlashi;
- o'quv materialini muammoli vaziyatlar, o'quv muammolari yoki topshiriqlar shaklida ishlab chiqishi;
- muammoli vaziyatlar o'quv muammolari va topshiriqlarni turli darajalarga ajratishi;
- asosiy o'quv materialini mantiqiy ketma-ketlikka tizimli bayon etilishini ta'minlashi;
- murakkab o'quv muammolari va topshiriqlarni ta'lim oluvchilarning bajarishlarida to'la imkoniyat yaratish uchun turli ta'lim usullari va vositalarini qo'llashi kerak.

Ta'lim oluvchi o'quv maqsadiga erishish uchun mustaqil harakatlari orqali o'zining faolligini ko'rsatishi, o'quv materialini har tomonlama puxta o'zlashtirilishiga zamin yaratadi.

Shu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, ta'lim oluvchilar shaxsini rivojlantirishning dolzarb psixologik-pedagogik muammolaridan biri ular da fuqarolik madaniyatini shakllantirishdir.

Shaxs fuqarolik madaniyati –bu tabiat, jamiyatni o'rganish va o'zgartirish jarayonida fuqarolarning o'z ijodiy kuchlari va qobiliyatlari ta'sirida muayyan millat, xalq, Vatanni ravnaq topshirish, uning moddiy va ma'naviy boyliklarini asrab-avaylash, ko'paytirishga qaratilgan inson faoliyatining yuksak namunasidir.

Ta'lim oluvchida fuqarolik madaniyati xususiyatlarini tarbiyalashda ularning bilim olish va o'rganish faoliyatlarini faollashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, bilim olish va o'rganish faolligi aqliy faoliyatini tashkil etishga ishtiyoq, haqiqatni aniqlashga intilish, turli manbalardan ma'lumot olib, bilimlarini

chuqurlashtirishga harakat va bilishga qiziqishni anglatadi. Ta'lim oluvchilar bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirish muhim vosita sifatida qabul qilinarkan, u quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi:

a) ta'lim-tarbiya jarayonini erkinlashtirish, sub'ekt-sub'ekt munosabati asosida hamkorlikda o'qishni yo'lga qo'yish va ta'lim oluvchilar qobiliyatini aniqlash orqali o'qishga moyillik hamda qiziqishni faollashtirish;

b) ta'lim-tarbiya mazmunini integratsiyalash orqali o'qitish maqsadi, vazifasi, mazmuni, usuli, shakli va vositalarini o'zaro aloqadorligi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash;

v) ta'lim-tarbiya jarayonida eng qulay faol usullarni qo'llash;

g) ta'lim va tarbiya jarayoniga texnologik yondoshuv asosida, ta'lim oluvchilarda bilim olish va o'rganish faolligini ta'minlovchi muammoli-vaziyatlar, muammoli-topshiriqlarni va o'yinli texnologiyalarni keng qo'llashga erishish;

j) muammoli va o'yinli texnologiyalarini, o'quv-texnologik kompleksni tashkil etish va undan maqsadli foydalanishni yo'lga qo'yish.

Yuqorida qayd etilgan talablar ta'lim oluvchilar faoliyatlarini faollashtirish orqali ularning ijodkorligini, o'quv – topshiriqlarni bajarish uchun farazlarni ilgari surishni va shu asosda yechimlarni topishga intilishga keng yo'l ochadi.

Shuni ta'kidlash joizki ta'lim berish jarayoni-ikki yoqlama jarayon bo'lib o'qituvchi ham, o'quvchi ham faol ishtiroki talab etiladi, o'qituvchi ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishga intilsa, u albatta, o'quvchilarni faollashtirish va rag'batlantirishni yo'lga qo'yish lozim.

Yuqorigi tahlillar shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda ta'lim oluvchilarni mustaqil bilim olish, o'z fikr mulohazalarini, mustaqil va erkin bayon qilish malakalarini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim oluvchida bunday xususiyatlarni shakllantirish uchun o'qitishning dastlabki bosqichlaridayoq bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirish lozim.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarda bilim va malakalarni shakllantirish jarayonida ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va o'quv faoliyatini faollashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

II BOB. TALABALARNI O‘QITISHDA QO‘LLANILADIGAN INTERFAOL O‘QITISHNING SHAKLLARI

Pedagogikada ta'limning zamonaviy interfaol metodlaridan eng unumilari quyidagilar va ular amalda faol qo‘llanilmoqda.

Ularga quyidagilar kiradi:

“KWL” metodi

KWL (bilasizmi?, bilishni xohlaysizmi?, qanday bilib olsam bo‘ladi?, nimani o‘rganib oldim?) – mavzudan avval talabalarning bilim va qiziqishlari darajasini bilib olish va talabalarning o‘qish yakunida baholash uchun ushbu metoddan foydalaniladi.

Ushbu metodni qo‘llashda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Guruh fikri jamlanadi;
2. Mavzuni boshlashda talabalarning bulutli texnologiyalar haqidagi bilimlari aniqlab olinadi;
3. Talabalar nimani bilishni xohlashlari aniqlab olinadi;
4. Talabalar nimani bilishni xohlashlarini bilib olish uchun harakat rejasi ishlab chiqiladi;

Vazifadan so‘ng akslantirish uchun.

Nima uchun qo‘llanilishi:

1. O‘qituvchiga talabalar dropbox bulutli platformasi haqida nimalarni bilishi va ularning savollari va qiziqishlari haqida ma’lumot beradi;
2. Bu talabalarning o‘zlarini o‘qitishiga imkon beradi;
3. U yuqori fikrlashga yordam beradi;
4. U o‘quv jarayonini tashkillashtirishda o‘qituvchi va talabalarga yordam beradi;
5. U o‘qituvchiga va o‘z-o‘zini baholashga yordam beradi.

Qanday qo‘llanilishi:

1. Ikki qismga bo‘lingan katta qog‘oz bo‘lagi talabalarga beriladi va mavzuni qog‘oz tepasiga yozadi (Dropbox bulutli platformasi);
2. Tepa qismda “Nimalarni bilaman” savoli yoziladi. Pastgi qismda “Nimani bilishni xohlayman” savoli yoziladi;
3. Bu savollarga javob topishi uchun talabalar yolg‘iz o‘zi, juft bo‘lib yoki kichkina guruhlariga bo‘linishi mumkin;
4. Javoblar auditoriyadagilarning bilim va qiziqishlar bazasi nima ekanligini bilib olish uchun muhokama qilish mumkin. O‘qituvchi savollarni ko‘rib chiqishi va javoblarni e‘lon qilishi ham mumkin. Talabalarning javoblari mavzuni o‘qitish va uni ishlab chiqishga yo‘naltiradi;
5. Ikkinchi qog‘oz mavzuni o‘qitish rejasini ishlab chiqish uchun kerak bo‘ladi. Buni individual, kichkina guruhlar yoki butun guruh o‘qituvchi bilan maslahatlashib amalga oshirish mumkin;

Mavzuni oxirida talabalar “Nimalarni bilib oldim” savoliga javob berishadi. Ular javoblarini avvalgi savollarga berishadi va bu orqali ular bilimlari qanchalik darajada ortganini va o‘zlari bilishni xohlagan ma’lumotga ega bo‘lishganligini aniqlanadi.

“SWIH” metodi

Ushbu metod xar bir talabani aktiv qatnashishini, o‘zaro faoliyat yuritishini, guruh bilan birga ishlashini ta‘minlaydi. Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi. Talabalarni guruxlarga bo‘lib, quyidagi jadvalni beramiz.

What? Nima?	(ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)
Where? Qayerda?	(joylashgan, qaerdan olish mumkin)?
What kind? Qanday?	(parametrlari, turlari mavjud)

When? Qachon?	(ishlatiladi)
Why? Nima uchun?	(ishlatiladi)
How? Qanday qilib?	(yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)

Har bir student o'ziga topshirilgan nozologiyalarga oid o'zgarishlarni o'z varaqasida qayd etishi lozim. Tayyorlanish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. So'ngra har bir kasallikka oid yurakdagi o'zgarishlar o'qituvchi bilan birgalikda muhokama etiladi, tahlil qilinadi, qo'shimchalar kiritiladi. Ushbu metod talaba nutqini shakllantirishga, rivojlantirishga, fikr yuritishga erdam beradi. Bu usul talabalar bilan individual, guruhli va ommaviy ishlash imkonini beradi.

Ushbu usulning afzallik tomoni shundaki, talabalar mustaqil yoki guruhli ishlashga, mustaqil fikrlashga va bir mavzuning ichidagi tashkil qilgan barcha qismlarni o'rganib chiqishga imkoniyat tug'iladi.

5W1H usuli – inglizcha What? (Nima?), When? (Qachon?), Why? (Nega?), Who? (Kim?), Where? (Qayerda?) va How? (Qanday?) ma'noli so'zlardan olingan. Bu usulni ingliz yozuvchisi va shoiri Red'yard Kipling (1865-1936) tomonidan kiritilgan.

Asosiy funksiyalari:

1. Bu usul ijodiy fikrlash va yangi g'oyalarni yaratishni tashkil etadi.
2. Usul muammoni tahlil qilish, uni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish, shuningdek, uning yangi, samarali echimlarini topishda foydalidir.
3. Bundan tashqari, tayyorgarlik va qaror qabul qilishda ham foydalanish mumkin.
4. Ushbu oltita universal savol biznes, tadqiqot loyihalari va hayotning ko'plab muammolarida ijodiy fikrlashni rag'batlantirish uchun stimul sifatida ishlatilishi mumkin.

Usulning mohiyati:

1. Berilgan savollar ro'yxatidan foydalanib, qo'yilgan muammoni chuqur tahlil qilish, yangi g'oyalarni yaratish va rivojlantirish amalga oshiriladi. Usulning mohiyati ketma-ket savollar berishdan iborat: Kim?, Nima?, Qachon?, Qayerda?, Qanday?, Nima uchun?

2. Berilgan savollarga batafsil, batafsil, aniq va original javoblar muammoni to'liqroq tahlil qilish imkonini beradi, qo'shimcha imkoniyatlar ochadi va uni hal etishda sezilarli yutuqlarga erishadi.

Asosiy etaplari:

1. Muammoni aniqlang yoki vazifani tuzing.
2. Doimiy ravishda standart savollarni so'rang va ularga kengaytirilgan javoblar bering.
3. Barcha paydo bo'lgan g'oyalarni yozib oling, umumlashtiring va eng muvaffaqiyatlarini tanlang.
4. Agar kerak bo'lsa, tayyorlangan ro'yxatdan bir qator qo'shimcha va kengaytirilgan savollarni bering.

Variantlari:

Savollar ishlarning hozirgi holati va yangi vazifani shakllantirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Nima qilinmoqda? Hozir nima qilyapman? Nima qilish kerak? Bu nima uchun qilinmoqda? Nima uchun buni qilish kerak? Bu qachon amalga oshiriladi? Buni qilishning eng yaxshi vaqti qachon?

Bu qayerda amalga oshiriladi? Buni qilish uchun eng yaxshi joy qayerda?

Kim qiladi? Buni kim qilish kerak? Kim buni yaxshiroq qila oladi?

Bu qanday amalga oshiriladi? Buni qanday qilib yaxshiroq qilishimiz mumkin?

Qo'shimcha savollari:

Muammo, vaziyat va topshiriqning o'ziga xos xususiyatlariga qarab, qo'shimcha va kengaytirilgan savollar tuzilib, amalga oshirilishi mumkin. Nima bo'ldi? Haqiqatda nima bor? Qanday muammo mavjud? Sizga nima to'sqinlik qilmoqda? Bu vaziyatda eng muhimi nima? Muqobil variant nima? Keyin nima? Nima uchun bu sodir bo'lmoqda? Bu nima uchun qilingan? Nima uchun bu muhim? Nima uchun bu ta'sir qiladi? Nega yo'q? Qachon boshlangan? Qachon faollikning cho'qqisi va pasayishi bo'ladi? Ta'sir qilish uchun eng yaxshi vaqt qachon? Qachon tugaydi? U qayerda sodir bo'ladi? U qayerda joylashgan? Qaysi joyda? Yana qayerda? Eng yaxshi joy qayerda? Qo'shimcha ma'lumotni qayerdan olsam bo'ladi? Kim aralashmoqda? Kim yordam beradi? Kim ta'sir qiladi? Buni kim hal qila oladi? Bu yana kimni qiziqtiradi? Kim g'alaba qozondi? Kim mutaxassis bo'lishi mumkin? Qancha? Qanchalik tez-tez? Muammoni qanday hal qilish mumkin? Uni qanday tuzatish kerak? Buni qanday o'zgartirishim mumkin? Ushbu qiyinchiliklarni

qanday english mumkin? Uni qanday ishlatish kerak? Muammo hal qilinganligini qanday bilamiz?

Usulning ustunligi:

1. Usuldan foydalanish oson va maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydi.
2. 5W1H savollari ishlaydi, chunki ular qisqa va to'g'ridan-to'g'ri.
3. Bu savollar universal bo'lib, ko'plab turli vaziyatlarga qo'llanilishi va ko'plab hayotiy muammolarni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin.

“PICO” metodi

PICO (bemor yoki populyatsiya - bemor yoki populyatsiya, aralashuv - aralashuv, taqqoslash - taqqoslash, natijalar - natijalar) - muayyan klinik amaliyotga oid savollar tug'diradigan muammoni shakllantirish usuli. Qidiruvni boshlashdan oldin, ko'rsatilgan Pico savollariga javoblarni tanlashingiz kerak, ular onlayn qidiruvda asosiy atamalarga aylanadi

(1-jadval).

Bemor yoki aholi	Bemorning xususiyatlarini tavsiflash (yoshi, jinsi ,irqi, tarixi va boshqalar)
Aralashuv yoki aralashuv omillari	Davolash, diagnostika testlari, ta'sir qilish omillari
Taqqoslash	Taqqoslash nima? Ta'sir etishmasligi, platsebo, boshqa turdagi aralashuv
Natijalar	

“Aqliy hujum” metodi

Bu metod amerikalik olim Osborn tomonidan taklif qilingan va hozirgi kunda “aqliy hujum”ning bir necha usullari ishlab chiqilgan. Bu metodning nomidan ma'lumki, aql vositasida bitta muammoga hujum uyushtiriladi. Hamma ishtirokchilar birgalikda bir hodisaga yoki bir muammoga fikr qaratadi va uning yechimini topishga harakat qiladi. Demak, “Aqliy hujum” jamoa g'oyalarini yig'ishdir. Maqsad – xilma xil g'oyalarni yig'ish, mustaqil fikrlash, ijodiy masalani mustaqil yechishdir. “Aqliy hujum” 15 minutdan bir soatgacha davom etishi mumkin. Barcha g'oyalar tanlangan ekspertlar tomonidan yig'ib olinadi va eng manzurlari tanlab olinadi.

Olim Donald Filips tavsiya qilgan "Aqliy hujum" esa katta auditoriyaga mo'ljallangan bo'lib, bu yangi turli-tuman g'oyalar samaradorligini oshiradi.

Bunda guruh yig'iladi va ular oldiga konkret muammo qo'yiladi. Muammo yechimi haqida barcha ishtirokchilar o'z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kim o'zga kishi g'oyalariга hujum qilmaydi yoki munosabat bildirmaydi. Bunday usul vositasida o'nlab yangi g'oyalarni yuzaga chiqarish imkoniyati paydo bo'ladi.

"O'z o'ringni top" metodi

Biror mavzu bo'yicha tortishuvlar, kelishmovchiliklar vujudga kelsa, bu metod yordamida muammoning yechimi topiladi. "O'z o'ringni top" metodi talabalarining o'z fikrlarini mustaqil bayon qilishi, shuningdek, o'z mulohazalarini qayta tiklashi uchun imkoniyat yaratadi, muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

Metod shartlari:

1. Auditoriyaning qarama-qarshi burchaklariga ikkita plakat osiladi. Ularning biriga "roziman", ikkinchisiga "rozi emasman" degan so'zlar va ikkita bir-biriga zid fikr ham yozib qo'yilishi mumkin. Masalan: "Yuridik termin bilan yuridik atama ikkovi bitta tushunchaning ikki xil shakli" yoki "Yuridik termin bilan yuridik atama ikkovi ikki xil, alohida tushunchalar".

2. Mazkur metodning qonun-qoidolari tushuntiriladi.

3. Talabalar qo'yilgan muammo bo'yicha o'zlariga ma'qul tomonga o'tishib, plakat yonidan joy oladilar. Talabalar soni 20 tadan oshmasligi kerak.

4. Ikki tomonga bo'lingan talabalar o'z fikrlarini isbotlashga kirishadilar. Mashg'ulot jarayonida talabalar o'z fikrlarini o'zgartirib, boshqa, ya'ni qarama-qarshi tomonga o'tib olishlari ham mumkin. Bunda ular nega bunday qilganligini asoslab berishlari shart.

5. Ishtirokchilarning fikr-mulohazalari to'liq eshitib bo'lingach, boshqaruvchi, ya'ni o'qituvchi ularni tahlil qilib, xulosalaydi va fikrlarni baholaydi.

6. Bunday metod vositasida bitta mavzuga doir turli xil yondashuvlar namoyon bo'ladi.

7. "O'z o'ringni top" metodi nafaqat auditoriyada, balki auditoriyadan tashqarida ham qo'llanilishi mumkin.

O'qituvchi guruhda har bir ishtirokchining ishlash faolligini kuzatib turadi. Bunday turdagi ishning samaradorligini amaliyotda kuzatishimiz

mumkin. Seminar mashg'ulotlariga tayyorlangan talabalar bilan ishlash ancha osonlik tug'diradi. Har bir talabaning faol ishtirokidan jamoa natijasi bog'liq.

"Munozara" metodi

Bu metodni turli shakllarda olib borish mumkin. Eng ko'p tarqalgan turi bu "telemunozara", "teleshou", "bahs-munozara" kabilardir. Bu metod yordamida talabalarga biror mavzu bo'yicha aniq, puxta, atroflicha axborot berishi mumkin.

Metod shartlari:

- boshlovchi mavzuni oldindan tanlab, ishtirokchilarni taklif etadi;
- ishtirokchilar guruhlariga (3-5 kishilik) bo'linadilar;
- kotib tayinlanadi(kotib o'rtaga tashlangan barcha g'oyalarni to'liq yozib boradi) va boshlovchi munozarani boshlaydi.;
- boshlovchi tomonidan tanqidiy fikrlash uchun sharoit yaratilib, bildirilgan fikrlar tahlil qilinadi va mustahkamlab boriladi. Bunda qo'yilgan muammoning yechimiga tegishli bo'lgan g'oyalargina ajratib olinadi;
- boshlovchi ishtirokchilarning asosiy mavzudan chetga chiqib ketmasliklarini nazorat qilib turadi;
- tanlangan mavzu dolzarb, ayni paytda, qiziqarli sohalariga oid bo'lishi lozim. Masalan: Ta'lim jarayoniga modul tizimini tatbiq etish qanday amalga oshiriladi?

"Debat" metodi

Bu usulning asosiy maqsadi - muammoning yechimini topishda talaba o'z fikriga boshqalarni ishontirish. Mazmun-mohiyati esa mustaqil fikrni aniq va mantiqan bayon etish, ishonarli dalillar topish, ularni xulosalashdan iboratdir.

"Debat" metodining shartlari:

- talabalar ikki guruhga ajratiladi;
 - mavzu rezolyutsiya shaklida ifodalanadi va e'lon qilinadi;
- har bir guruhdan guruh sardori va kuzatuvchi-hisobchi tayinlanadi;
- rezolyutsiyani qo'llab-quvvatlaydiganlar o'qituvchining o'ng tomoniga, qarshilar esa chap tomoniga o'tadilar;
- o'qituvchi so'zga chiquvchilar uchun vaqt (reglament)ni belgilaydi;
- bahsni rezolyutsiyaga qarshi tomon vakillari boshlaydi. O'qituvchi guruh talabalarining birinchisiga so'z beradi va uning fikri, argumentlarini tahlil qilib boradi. Kuzatuvchilar ularni yozib boradi. Talabalar navbatma-navbat so'zga chiqadilar;

- muammoning yechimiga qaratilgan, barchani o'ylashga majbur etadigan argumentlar keltirilishi lozim;
- o'qituvchi darsni yakunlab, xulosalaydi va talabalarni baholaydi.

"Davra suhbat" metodi

Bu metod pedagog va talaba o'rtasida bevosita aloqa o'rnatadi. O'qituvchi o'rganilgan mavzuning eng muhim joylaridan savollar tuzib, ularni talabalarga havola qiladi. Savollar talabalarning bilimini tekshirish uchun emas, balki ularning shu masala bo'yicha tasavvurga ega yoki ega emasligi, navbatdagi ko'riladigan masalaga o'tish, uni yoritish uchun tayyor yoki tayyor emasligini aniqlash uchun beriladi. Talabalar o'rinlaridan turib, savollarga javob beradi. O'qituvchi esa javoblarning qanchalik aniq yoki mujmalligiga qarab, masala yechimiga o'tadi.

"Munozarali davra suhbat" metodi

Bunda o'qituvchi talabaning na faqat javobini eshitadi, balki ularga o'z fikrlarini bimalol izhor qilishga imkoniyat beradi. Bu usul darsning qiziqarli va jonli o'tishini ta'minlaydi, talaba bilimini kengaytiradi. Ko'rilayotgan masala bo'yicha mavjud muammolar o'qituvchi va talaba hamkorligida aniqlanadi hamda ularning yechimi bo'yicha birgalikda munozara yuritiladi. Shu tarzda sayoz bilimdan chuqur va to'liq bilimga, o'rganilayotgan hodisaning tub mohiyatini tushunishga erishiladi. O'qituvchi guruhdagi fikrlarni umumlashtirib, xulosa yasaydi.

"Anjuman" metodi

Bu metodda bir nechta muammolar havola etiladi. Mashg'ulotga soha mutaxassislar va mutasaddi shaxslar taklif qilinadi. Bu darsning qiziqarli va jonli o'tishini ta'minlaydi. Bu metod ham talabalarni mustaqil fikrlashga, erkin mushohada yuritishga o'rgatadi. Talabalar anjuman ishtirokchilariga o'zlarini qiziqtirgan savollarni og'zaki yoki yozma ravishda berishlari mumkin.

"Breyn - ring" metodi

Bir nechta stollar joylashtirilgan xonada talabalar guruhlariga bo'linadilar. Boshqaruvchi savollar bilan talabalarga yuzlanadi. Stoldagi javob tugmasini qaysi komanda birinchi bo'lib bossa, o'sha guruh 1-bo'lib javob beradi. Javob noto'g'ri berilgan taqdirdagina, boshqa komandaga so'z navbati beriladi. Komanda ballari hisoblab boriladi. Bu metodda komanda sardorlar o'zaro bellashib, o'z guruhiga ochko olib kelishi ham mumkin.

III BOB. ASAB KASALLIKLARINI O'QITISHNI QISQACHA TAVSIFI

Asab kasalliklari keng tarqalgan kasalliklar sirasiga kiradi va turli-tuman klinik belgilar bilan namoyon bo'ladi. Nevrologiya faniga bundan ming yil ilgari Abu Ali ibn Sino asos solgan bo'lib, faqat XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Yevropa tibbiyotidan nevrologiya fani bo'lib ajralib chiqqan. Abu Ali ibn Sino birinchi bo'lib umumiy nevrologiya bilan xususiy nevrologiyani ajratib berdi, inson a'zolarining faoliyatini ularning tuzilishi bilan chambarchas bog'liq ravishda bayon qildi. Shu bilan birga a'zolari bosh miya va itoatkor a'zolarga bo'lib chiqqan, bosh (markaziy) a'zolarga bosh va orqa miyani kiritdi. Bosh miyani his-tuyg'ular va harakatning boshlang'ich a'zosi deb ta'riflagan. Bosh miya anatomiyasini bayon qilgan. Ibn Sino bosh miyani «ong markazi» deb ta'riflaydi. Bu a'zo orqali biz dunyoni ko'ramiz, eshitamiz, mushohada qilamiz va hidni bilamiz. Bu a'zoda fikr paydo bo'ladi, fikrdan esa bilim tug'iladi. Ichki a'zolarining faoliyati, ishlash tarzi ham bosh miyaga bog'liq. Ibn Sino orqa miya anatomiyasi va fiziologiyasini chuqur o'rganib, shunday yozgan edi: «yaratuvchi... bosh miyaning bir qismini pastga (tananing pastki qismiga) tushirib, insonga muruvvat ko'rsatdiki, undan ajralgan asablar mayda tarmoqlarga bo'linib, o'z vazifalarini bimalol, uzluksiz bajo keltiradilar». Ibn Sino nafas markazining bosh miya bilan orqa miya o'rtasida joylashganligini, jinsiy va siydik chiqarish a'zolari faoliyatini orqa miya idora qiladi deb aytgan. Ibn Sino «Tib qonunlari» kitobida periferik asab tizimining anatomiyasi va fiziologiyasini tasvirlab bergan. Periferik asablarni Ibn Sino quyidagicha ta'riflaydi: «asablar bosh miyadan yoki orqa miyadan boshlanib, mayda, yumshoq o'tkazgichlardan iborat. Ular harakatlantirish va sezish vazifalarini bajarish uchun yaratilgan». Bundan tashqari, bosh miya va orqa miya asablarining harakatlantiruvchi va sezuvchi vazifalarini e'tiborga olib, alohida-alohida bayon qilgan. Ibn Sino asab va ruhiy kasalliklar tasnifini yaratgan. Hozirgi zamon asab tizimi tasnifi Ibn Sino yaratgan tasnifdan katta farq qilmaydi. Ibn Sino kasalliklarni o'tkir va surunkali, yengil yoki og'ir, davolanadigan va davolanmaydigan kasalliklarga bo'ladi. Kasallikni 4 ta: boshlang'ich, zo'rayish, o'ta zo'rayish va susayish davrlarga ajratadi. Ichki a'zolar kasalliklari natijasida asab tizimining buzilishlarini ifodalab bergan. Ibn Sino bemorlarni davolashda psixoterapiyaga katta e'tibor bergan. Uning fikricha, yaxshi so'z, mehribon do'st va sevimli odamlarning yaqinligi,

sayru sayohatlar, ov, musiqa kabi kayfiyatni yaxshilovchi omillar inson ruhini ko'tarib salomatligini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, kasallik turlarini o'rganishda Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Abu Bakr ar-Roziy va boshqa olimlar olib borgan ishlar ham maqtovg'a sazovordir. Insonning asabi nozik, lekin qudrati zo'r. Kishi asabi qanchalik zo'riqsa, kasallikka shunchalik tez chalinadi va dard ancha og'ir o'tadi. Odamning asabi qanchalik yaxshi bo'lsa, kuch-quvvati ham yaxshi bo'ladi. Agar odamning asabi tinch va o'zi xotirjam bo'lsa, kasallikdan yiroq yuradi. Bunday odam dardga uchraganda ham tez va asoratsiz sog'ayadi, deb yozgan edi Abu Bakr ar-Roziy.

MASHG'ULOTNING ASOSIY MAQSADI VA VAZIFALARI

Asab kasalliklari fanini maqsadi – Nevrologiya fanini talabalarga umumiy va klinik nevrologiya asoslarini, kasalliklar profilaktikasini, erta diagnostikasi va davolash usullarini o'rgatishdan iborat.

Asab kasalliklari fanning vazifalari:

- umumiy va xususiy nevrologiyaning asosiy tomoyillarini;
- sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishni;
- asosiy nevrologik sindromni aniqlash va u asosida topik, nozologik diagnoz qo'yish;
- nevrologik kasalliklari, ularning etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinik ko'rinishlari, asoratlari va davolash prinsiplari to'g'risida tushunchalarni shakllantirish;
- bemorlarni professional nevrologik ko'ruv ko'nikmalarini egallash;
- o'tkir nevrologik kasalliklarda shoshilinch yordam berish ko'nikmalarini egallash;
- tekshiruv o'tkazish vrach taktikasi, davolash va profilaktik bilimini shakllantirish;
- nevrolog – magistr'larga bemorlarni yuborish ko'rsatmalarni bilish;
- o'tkir nevrologik holatlar uchraganda tez yordam ko'rsatish amaliy ko'nikmasi ishlab chiqish;

Fan bo'yicha talabalarning malakasiga qo'yiladigan talablar

- sindromal, topik, nozologik va yakuniy tashxis asoslari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- eng ko'p tarqalgan nevrologik kasalliklarni etiologiya, diagnostika, profliktika va davolash prinsiplari;
- nevrologik sindromlarni qiyosiy tashxisi;

- asab kasalliklarida qo'llaniladigan diagnostika usullari to'g'risida bilishi
- va ulardan foydalana olishi kerak
- xarakat sferasini tekshirish usullari;
- sezgi sferasini tekshirish usullari;
- xarakat koordinatsiya tekshirish usullari;
- meningial belgilarni tekshirish usullari;
- tortilish simptomlarni tekshirish usullari;
- ko'z harakatlantiruvchi nervlarni tekshirish;
- yuz nervlarni tekshirish;
- bulbar sindromni tekshirish usullari malakalariga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.


III.2 MAVZUNING QISQACHA MAZMUNI

Uch shoxli nerv nevralgiyasi

Yuz og'rig'ining eng keng tarqalgan turlaridan biri uch shox nervning nevralgiya bo'lib, u 1671 yilda o'z nomini oldi va Aretaeus davolovchi ushbu kasallikni o'tgan ming yillikning birinchi asrida birinchi marta o'z maktublarida tasvirlab berdi. U yuzning yarmida og'riqli og'riqlar bilan kechadigan kasallikni batafsil bayon qildi.

Uch shox nervning nevralgiya (UShNN) tarqalishi juda yuqori va 100000 aholiga 30-50 bemorni tashkil qiladi va Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, kasallanish darajasi 10000 aholiga 2-4 kishidan iborat. JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab 1 milliondan ortiq odam uch shox nervning nevralgiyadan aziyat chekmoqda.

Kopincha bu azob 50-70 yoshda yuzning o'ng yarmida ayollarda uchraydi. Kasallikning rivojlanishiga turli qon tomirlari, endokrin-metabolik, allergik kasalliklar, shuningdek psixogen omillar yordam beradi. Ammo ko'pincha kasallikning sababini bilib bo'lmaydi.



Uch shox nervning nevralgiyasi belgilar ‘

Bemorning yuziga og‘riqli hujumlar (lablar, ko‘zlar, burun, yuqori va pastki jag‘, tish go‘шти, til) o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi yoki gapirish, chaynash, tishlarini yuvish, yuzning ayrim qismlariga tegishi (qo‘zg‘atuvchi nuqtalar) bilan qo‘zg‘atishi mumkin. Ularning chastotasi kuniga birdan o‘nga va yuzlabgacha o‘zgarib turadi. Aniqlanish davrida, ko‘pincha sovuq mavsumda hujumlar tez-tez uchraydi. Bu og‘riq shunchalik kuchliki, bemorlar boshqa narsaga diqqatni jamlay olmaydilar. Bemorlar bu vaqtda doimiy keskinlikda, o‘zlarining hissiyotlarini berkitib, mavjud bo‘lishadi, atrofda hech narsani sezmay, faqat keyingi hujumni kutishmoqda. Ba‘zida kasallar, boshqa azob-uqubatlarga dosh berolmay, o‘z joniga qasd qilishadi. Rimissiya davrida ham bemorlar qo‘rquvda yashaydilar, kasallikning kuchayib ketishidan qo‘rqadilar, yuradilar, yozda ham boshlarini yopadilar, yuzning kasal

yarmiga tegmaydilar, tishlarini yuvmaydilar, zararlangan tomonni chaynamaydilar.

Birinchi tashrif ko'pincha nevropatologga emas, balki stomatologga to'g'ri keladi. Bu og'riqni tarqatish zonasi nafaqat yuzda, balki og'iz bo'shlig'ida joylashganligi bilan bog'liq. Ko'pincha, sog'lom tishlar zararlangan tomondan xato bilan olib tashlanadi.

Kasallik uzoq vaqtdan beri ma'lum bo'lganiga qaramay, uning kelib chiqish sabablari to'g'risida hali ham bir fikrga kelmagan.

Hozirgi kunda ko'plab tadqiqotchilar nevrologiyani asabning bir qismiga qon tomiridan (arteriya yoki venadan) bosim tushishi va shu bilan asab qobig'ining o'zgarishiga (demiyeleinatsiya) sabab bo'lishi mumkin deb hisoblaydilar. Nerv po'stining o'zgarishi, o'z navbatida, asab impulslarining o'tishining o'zgarishiga olib keladi, bu esa asabning patologik qo'zg'alishi ko'rinishini keltirib chiqaradi va oxir-oqibat og'riq paydo bo'ladi. Nerv qobig'idagi mahalliy o'zgarishlarning sababi asabning o'simtasining bosimi, asab o'tadigan toraygan suyak kanalining devorining bosimi bo'lishi mumkin. Virusli kasalliklarda (gerpes) yoki sklerozda membrana zararlanishi mumkin.


Ko'p hollarda uch shoxli nerv nevrologiyasi tish og'rig'i singari namoyon bo'ladi. Dastavval bemor tish og'ridan shikoyat qilib stomatologlarga murojaat qiladi, vrach og'iz bo'shlig'ini tekshiruvdan o'tkazadi, lekin og'riq davom etadi. Ayrim hollarda bemorning qistovi bilan sog'lom tishlar ham olib tashlanadi.

Shunga qaramay og'riq boshqa tishlarda paydo bo'ladi. Og'riq chidab bo'lmas darajaga yetadi, bu xuddi bemorning yuz qismiga elektr toki urgandek namoyon bo'ladi. Tishlarni tozalash, ovqatlanish, sovuq havo va hatto gaplashish ham og'riqni qo'zg'atib yuboradi.

Bemor og'riqlardan qo'rqib qoladi, "og'rig'im boshlanib qoladimi?",- deb doim qo'rqib turadi. Og'riq qattiq bo'lgan vaqtlarda bemor yuzining og'riq bo'layotgan qismini qattiq bosishga, og'riqni pasaytirishga harakat qiladi.

Ba'zan yuzdagi og'riqlarga og'iz bo'shlig'i va tildagi og'riqlar ham qo'shiladi. Ko'pincha bemorlar ketma-ket bir nechta sog'lom tishlarini

ham oldirib yuborishadi va shundan so‘ng nevrapatolog qabuliga kelishadi.



Uch shoxli nerv nevrалgiyasini davolash

I. Konservativ uslubda davolash:


Uch shoxli nerv nevrалgiyasini davolashning konservativ bosqichida asosan antikonvulsantlar qabul qilinadi: karbamazepin (finlipsin, karbaleks). Davolashning keyingi bosqichlarida gabapentin (gabagamma, tebantin) yoki pregabalin (lirika) kabi dori vositalari qo‘llaniladi. Lekin vaqt o‘tishi bilan ushbu dori vositalari ham og‘riqni yetarli miqdorda pasaytira olmay qoladi. Bunday holatlarda bemor jarrohlik yo‘li orqali davolanadi.

II. Jarrohlik uslubida davolash:

Hozirgi kunda zamonaviy tibbiyotda ikki xil uslubdagi jarrohlik amaliyotlari keng tarqalgan.


1. Uch shoxli nerv ildizining mikrovaskulyar dekompressiyasi.

Ushbu jarrohlik uslubida orqa bosh suyagi asosi chuqurchasi trepanatsiyasi amalga oshiriladi. Uch shoxli nerv ildizchalari, yuqori va pastki oldingi miyacha arteriyalari va yuqori toshsimon vena reviziyasi amalga oshiriladi. Nerv ildizchasi qon tomirlar tomonidan bosilishi aniqlangan holatda maxsus bolishcha qo‘yilib nerv ildizchasi bosilishiga barham beriladi.



Biroq nerv va qon tomir kompressiyasi har doim ham kasallikning sababi hisoblanavermaydi, bundan tashqari og‘ir somatik patologiyaga chalingan va keksa yoshli bemorlarda ushbu jarrohlik amaliyotini o‘tkazishni imkoni bo‘lmaydi.

2. Bunday holat bemorlar uchun ikkinchi uslub qo‘llaniladi. Bu hozirgi kunda dunyoning yetakchi neyrojarrrohlik klinikalarida keng qo‘llanilib kelinayotgan uch shoxli nerv nevralgiyasini radioto‘lqinli denervatsiya qilish uslubi hisoblanadi.



3.3 ASAB KASALLIKLARI FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARINI QO'LLASH

SWIH METODI

Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What? Nima?	Uch shoxli nerv nevralgiyasi
Where? Qaerda	Markaziy (Gasser tugunni tasirlanganda); Periferik (periferik shoxlarnig tasirlanganda); miya ustunida kuzatilishi.
What kind? Qanday?	Bir necha soniyadan 2 daqiqagacha davom etuvchi sanchuvchi, o'tkir, hurujsimon, elektr toki urushiga o'xshaydigan og'riqlar.
When? Qachon (kuzatiladi)?	Kechki, kunduzgi yokikun vaqt bilan bog'liq bo'lmagan og'riqlar; Ovqatlanish, tish yuvish, trigger zonalar tasirlangandan keyin paydo bo'ladigan og'riqlar.
Why? Nima uchun?	(Sabab) Sovuqqotish (Yuz soxada); Surunkali karies yoki sinusit; Infeksion va virusli kasalliklar; Tashqi, o'rta yoki ichki quloqni yallig'lanishi; Bosh miya o'sma kasalliklari; Chakka suyagida o'tkazilgan operatsiya yoki travmalar.

How?

Qanday qilib?

Qiyosiy tashxis Qanday qilib og'riqlarning nevralgiya hurujiga tegishli ekanligini aniqladingiz

“PICO” metodi

PICO (bemor yoki populyatsiya - bemor yoki populyatsiya, aralashuv - aralashuv, taqqoslash - taqqoslash, natijalar - natijalar) - muayyan klinik amaliyotga oid savollar tug'diradigan muammoni shakllantirish usuli. Qidiruvni boshlashdan oldin, ko'rsatilgan Pico savollariga javoblarni tanlashingiz kerak, ular onlayn qidiruvda asosiy atamalarga aylanadi.

P – Uch shoxli nerv nevralgiyasi bilan kasallangan bemorlar

I – Karbamazepin va tebantin kombinatsiyasini qo'llash

C – 2 guruxdagi bemorlar:

- Karbamazepin qabul qiluvchi bemorlar

- Karbamazepin qabul qilmaydigan bemorlar

O – Uch shoxli nerv nevralgiyasida hurujlar sonini kamayishi

Savol tipi – nevrologiya, prognoz

Dizayn tipi – Sistematik tahlil, meta- analiz, isbotlanganlik darajasi 1a, 1v





NAZORAT SAVOLLARI

1. V-juft bosh miya nervini tekshirish
2. V - juft bosh miya nervi anatomiyasini aytib bering
3. Uch shoxli nervning 1- shoxi innervatsiyasini aytib bering
4. Uch shoxli nervning 2- shoxi innervatsiyasini aytib bering
5. Uch shoxli nervning 3- shoxi innervatsiyasini aytib bering
6. Beshinchi juft nervini tekshirish usullari aytib bering
7. Uch shoxli nerv nevralgiyasini etiologiyasini aytib bering
8. Uch shoxli nerv nevralgiyasini klinik ko'inishi
9. Uch shoxli nerv nevralgiyasini davolash usullari
10. Uch shoxli nerv nevralgiyasini medikamentoz davosi
11. Uch shoxli nerv nevralgiyasini xirurgik davosi
12. Uch shoxli nerv nevralgiyasini qiyosiy tashxislab bering
13. Gasser tugun zararlanganda qanday klinik belgilar kuzatiladi
14. Xirurgik davolash uchun ko'rsatmalar
15. 55 yoshli bemor klinikaga yuzning chap yarmida paroksizmal og'riqlar haqida shikoyat bilan murojaat qildi, chap yonoqqa qo'l, sochiq, kiyim va boshqalar bilan tegganda paydo bo'ladi. va 3-4 soniya davom etadi, kuydiruvchi xarakterli og'riqlar, boshning orqa qismiga tarqaladi anamnezdan ma'lum bo'lishicha, u ikki oy oldin yuqori haroratli orvi bilan og'rigan, orvi boshlanganidan ikki hafta o'tgach, yuzning chap yarmida birinchi bo'lib 1-2 soniya davom etgan og'riq xuruji bo'lgan, keyin hujumlar 3-4 soniya davom etgan. O'tmishdagi kasalliklardan u bolalik infeksiyalari, sovuqni ko'rsatadi. Umumiy holati qoniqarli.

Tekshirilganda, chap yarmining shishishi tufayli yuz biroz assimetrik bo'ladi. Trigeminal asab shoxlarining II (infraorbital ochilish) va III (aqliy ochilish) chiqish nuqtalarini palpatsiya qilish chap tomonda ko'proq og'riqli. Chap tomonda bukkal soxani palpatsiya qilish bilan 3 soniya davom etadigan og'riq hujumi boshlandi. Og'iz bo'shlig'i sanitarizatsiya qilingan, patologik o'zgarishlar aniqlanmagan.

1. Tashxisni asoslang.

2. Tashxis qo'ying.

3. Davolash rejasini tuzing.

16. Bemorni tekshirganda, u 2 daqiqa davomida o'tkir, kesuvchi, paroksizmal og'riqlar bo'layotganini aytdi. Suhbat boshlanganda og'riq paydo bo'ldi. Og'riq pastki jag'ga, bo'yinga tarqaldi. Bemor ma'lum bir holatda qotib qoldi. Vegetativ alomatlar yo'q. Anamnezdan ma'lum bo'lishicha, bir oy oldin bemor xuddi shu tomondan pastki birinchi molyarni atipik ravishda olib tashlagan. Og'riq tish chiqarilgandan taxminan bir hafta o'tgach paydo bo'ldi. Dastlab ular 5-10 soniya, bir hafta o'tgach 30-60 soniya, uch hafta o'tgach esa 1-2 daqiqa davom etdi. Hurujlar tez-tez takrorlanib, suhbat va ovqatlanish paytida paydo bo'ldi. Shifokor novokain bilan intraoral mandibulyar anesteziya qildi. Og'riq 2,5 soat davomida to'xtadi.

Tekshirilayotgan bemorga qanday tashxis qo'yish mumkin:

1. pterigopalatin ganglioniti;

2. Uch shoxli nervning 3- shoxi zararlanishi

3. mandibulyar nerv nevriti:

Auditoriyadagi mustaqil ish

Auditoriyadagi talaba mustaqil ishi amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi nazorati ostida amalga oshiriladi. Mustaqil ishini o'tkazish davomida o'qituvchi har bir talaba bilan individual ishlaydi, mustaqil ishini bajarish bo'yicha maslahat beradi, ish natijalarini tekshiradi.

Auditoriyadan tashqari mustaqil ish

Auditoriyadan tashqari mustaqil ish amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, mashg'ulot mavzulari bo'yicha konspekt yozish, uy vazifalarini bajarish, ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash, fanning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish, ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash kabi ish turlarini o'z ichiga olib, u talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy va oraliq nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

I. Foydalanilgan adabiyotlar

1. “2017-2021 yillarda Uzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi buyicha Harakatlar strategiyasi”, Toshkent, 2017 yil.
2. “2017-2021 yillarda Uzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi buyicha Harakatlar strategiyasi”, Toshkent, 2017 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni.
6. 1. Majidov N.M., Gafurov B.G., Majidova Y.N., Xususiy nevrologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2017y.
7. Ibodullaev Z.R. Asab kasalliklari. –monografiya Toshkent. 2019y.

II.Elektron ta’lim resurslari:

1. [www.medport.ru /medpb/](http://www.medport.ru/medpb/)
2. [www: medline.](http://www.medline)
3. [www.ziyonet.uz;](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.lex.uz;](http://www.lex.uz)
5. www.scopus.com
6. www:medicininform.net/deti
7. www.medlinks.ru/speciality
8. www:pediatry.eurodoctor.ru
9. www.krugosvet.ru/articles

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Ilmiy Kengashi
№ 6 -sonli yig'ilish bayonnomasi qarorlaridan
Ko'chirma

31 - 01 2025-yil

Farg'ona shahri

Rais: A.A. Sidikov

Kotib: I.X. Iminaxunova

Qatnashdilar: 53 nafar Ilmiy Kengashi a'zolaridan 48 nafari

Kun tartibi:

4. Har xil masalalar. Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan darslik, o'quv qo'llanma, o'quv uslubiy ishlar, monografiyalar, uslubiy tavsiyanomalarni, ilmiy loyihalarni va dissertatsiya ishlarini natijalarini muhokamadan o'tkazish va tasdiqlash.

Ilmiy Kengash kotibi I.X. Iminaxunova so'zga chiqib, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Nevrologiya va psixiatriya kafedrasida katta o'qituvchisi **Umarova Malika Po'latjonovnaning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishida yozilgan “Uch shoxli nerv nevrалgiya” mavzusini o'qitish jarayonida interfaol usullarni qo'llash** mavzusidagi monografiyasi, hamda unga Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Nevrologiya va psixiatriya kafedrasida mudiri, PhD, dotsent A.R.Muardimova, hamda TTATF Tibbiy psixologiya, psixiatriya va nevrologiya kafedrasida mudiri, PhD D.E.Iskandarovalar tomonidan berilgan ijobiy taqrizlari bilan yig'ilish qatnashchilarini tanishtirdi. Monografiyaning hozirgi kunda dolzarbligi, yangiligi va qo'yilgan talablarga javob berishi ta'kidlab o'tildi. Ilovalar kengash a'zolariga havola qilindi. M.P.Umarova tomonidan yozilgan “Uch shoxli nerv nevrалgiya” mavzusini o'qitish jarayonida interfaol usullarni qo'llash” mavzusidagi monografiya muhokamadan o'tkazildi va Ilmiy Kengash a'zolari tomonidan bir ovozdan ma'qullandi.

Qaror qilindi:

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti assistenti, Umarova Malika Po'latjonovnaning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishida yozilgan “Uch shoxli nerv nevrалgiya” mavzusini o'qitish jarayonida interfaol usullarni qo'llash” mavzusidagi monografiyasi tasdiqlansin va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashga taqdim etilsin va nashriyotga taqdim etilsin.

Oliy ta'lim muassasasi
kengash raisi, t.f.d., prof.:

Kengash kotibi DSc, dots.:



A.A. Sidikov

I.X. Iminaxunova

Monografiya

M.P.Umarova

**“UCH SHOXLI NERV NEVRALGIYA” MAVZUSINI
O‘QITISH JARAYONIDA INTERFAOL USULLARNI
QO‘LLASH**

Texnik muharrir : Ro‘zimurod Axmedov

Sahifalovchi: Sardor Yusupov

Dizayner: Angelina Poluektova

Musahhih: Kamolliddin Kamalov

Tasdiqnoma № 495679. 21.11.2024.

Bosishga 2024-yil ruxsat etildi:

Bichimi 60x84 1/16. Ofset kog‘oz

“Times new Roman” garniturasida ofset usulida bosildi

Shartli bosma tabog‘i – 2,75. Nashr tabog‘i – 1,375.

Adadi 500 nusxa. Shartnoma №

Buyurtma№

Original maket «Classic» nashriyotida tayyorlandi.

150114, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahar,

Aviasozlar ko‘chasi 2-uy.

Telefon: (93) 507-52-72

“Poligraf Super Servis” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

150114, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahar,

Aviasozlar ko‘chasi 2-uy.